



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 26-fevral, № 40 (8935)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



## IZLANIB, O'RGANIB, ICHKI IMKONIYATLARNI TO'LA ISHGA SOLGAN HUDUD YUTADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-fevral kuni Sirdaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish, ish o'rinlari va investitsiyalarni ko'paytirish bo'yicha 2025-yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.**

Keyingi yillarda Sirdaryoda energetika, qurilish, tadbirkorlik birmuncha rivojlandi. O'tgan yili davlatimiz rahbarining Sayxunobod tumaniga tashrifi chog'ida tomorqachilik va kichik loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tajriba yaratildi.

Lekin tashabbuskorlik kamligi uchun sanoat, savdo va xizmatlar rivojlanishdan orqada qolib ketyapti. Xususan, Sirdaryoda xizmat ko'rsatish sohasining respublikadagi ulushi eng past. Kambag'allik darajasi 11 foizdan ko'p. 22 ming nafar fuqaro ishsiz.

Bugun dunyoda iqtisodiy shart-sharoitlar tez o'zgarib bormoqda. Bunday vaziyatda izlanib, o'rganib, ichki imkoniyatlarni to'la ishga solgan hudud yutadi.

Shu maqsadda Sirdaryo viloyatida investitsiyalarni ko'paytirib, sanoat va biznes-muhtni yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish, shuningdek, viloyatning tranzit salohiyatidan unumli foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Masalan, qariyb 900 gektar yer maydonida sanoat zonalarini tashkil qilinishi mo'ljallangan. Bu 5 milliard dollar investitsiyaga va 20 mingdan ortiq yangi ish o'rniga zamin bo'ladi. Loyihalar Sirdaryo, Shirin, Boyovut, Xovos, Mirzaobod, Guliston, Oqoltin va Sardobada joylashadi.

Viloyat geografik jihatdan O'zbekistonning markaziy qismida, bir nechta xalqaro avtomagistral kesishmasida joylashgan bo'lib, bir kcha-kunduzda 311 mingta transport vositalari o'tadi. Shunga ko'ra tadbirkorlar bu yo'llar bo'yida yuzlab savdo shoxobchalari ochishga tayyorligini bildirgan.

Umuman, 500 ming kvadrat metr savdo-servis maydoni tashkil etib, 50 ming

odamning bandligini ta'minlash imkoniyati bor. Yer-suvi mo'l bu hududda paxta, sholi, meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish uchun katta salohiyat bor. Shu bois kartoshka, piyoz, maymunjon, qorag'at va olcha maydonlari kengaytiriladi. Tomorqa, dala va kanallar chetidagi 38 ming gektarga qayta ishlovchi va eksportchilar birlashtiriladi.

8 ta tumandagi past rentabelli 25 ming gektar yer sholi yetishtirishga o'tkaziladi. Sholichilik korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun mahsulotning 50 foizini eksport qilishga ruxsat beriladi.

Viloyatda mingdan ziyod xonadonning qurilganiga ellik yildan oshgan. Renovatsiya dasturi asosida ularning o'rnida 15 ming xonadonli zamonaviy uy-joylar qurilishi ko'zda tutilgan. Bu borada Marg'ilon shahri, Do'stlik tumanidagi ijobiy tajribalar o'rganiladi.

Yangi xonadonlar arzon bo'lishi uchun developerlarga soliq, bojxona imtiyozlari beriladi. Shuningdek, viloyatdagi yo'l, elektr, uy-joy, irrigatsiya, bog'cha, maktab va boshqa ijtimoiy obyektlarni yangilashga 100 million dollar yo'naltiriladi.

Guliston shahrini uzluksiz ichimlik suvi bilan ta'minlashga zarur mablag' ajratish va bu ishlarni 2025-yil 1-iyulga qadar yakunlash topshirildi. Shuningdek, Guliston va Shirin shaharlarida urbanizatsiya jarayonlarini jadallashirish maqsadida ularning hududini kengaytirish taklifi ma'qullandi.

Umuman, bunday imkoniyatlar evaziga joriy yilda 2 milliard dollar investitsiya jalb etib, eksportni 500 million dollarga yetkazish vazifasi belgilandi. Buning natijasida 16 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari ochilishi, kambag'allik darajasi 7,4 foizga tushishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
F A R M O N I

## "IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI G'ALABANING 80 YILLIGI" ESDALIK YUBILEY MEDALINI TA'SIS ETISH TO'G'RSIDA

2025-yil 9-mayda Xotira va qadrlash kuni o'tkazilishi, shuningdek, Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi nishonlanishi munosabati bilan Vatani himoyasi yo'lida mardonavor kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e'tibor va chuqur ehtirom ko'rsatish, g'alabaga bebaho hissa qo'shgan O'zbekiston fuqarolari — 1941 — 1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini munosib ravishda izzat-ikrom bilan sharafflash maqsadida:

1. 1941 — 1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 80 yilligi sharafiga "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali ta'sis etilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki, "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari — "1941 — 1945-yillardagi Ulug' Vatani urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" va "Yaponiya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" medallari bilan, urush yillarida jangovar xizmatlari uchun boshqa orden va medallar bilan mukofotlangan yoki urush qatnashchisi guvohnomasiga yoxud Vatani nogironi guvohnomasiga ega bo'lgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilganlar, shuningdek,

Ikkinchi jahon urushi yillaridagi front orti mehnat faxriylari, shu jumladan, "1941 — 1945-yillar Ulug' Vatani urushidagi shavkatli mehnati uchun", "Mehnatdagi jasorati uchun", "Mehnatda o'mak ko'rsatganligi uchun" medallariga yoki 1941 — 1945-yillardagi urush davrida Qurolli Kuchlarda fuqaro shaxslarni erkin yollash bo'yicha shtat lavozimida bo'lganligi to'g'risidagi guvohnomaga ega bo'lgan mehnat fronti qatnashchilari mukofotlanadi.

3. Quyidagilar:  
"Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

"Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali va tavsifi 2-ilovaga, uning guvohnomasi va tavsifi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jang'armasi bilan birgalikda ikki hafta muddatda "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali bilan mukofotlanishi lozim bo'lgan 1941 — 1945-yillardagi urush faxriylari va nogironlarining, mehnat fronti qatnashchilarining aniq ro'yxatini tuzib, Vazirlar

Mahkamasiga kiritilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: Markaziy bank va "Suvenir" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan birgalikda bir oy muddatda "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medallari va ularning guvohnomali blanklari belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasining zaxira jang'armasi mablag'lari hisobidan tayyorlanishini ta'minlasin;

ikki hafta muddatda esdalik yubiley medallarini topshirish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-fevraldagi "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi PF-24-son Farmonida nazarda tutilgan bir martalik pul mukofotlari to'lash tartibini belgilasin.

6. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.V.Maxmudov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2025-yil 25-fevral

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2025-yil 25-fevraldagi PF-32-son Farmoniga  
1-ilova

### "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali to'g'risida NIZOM

1. "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali (keyingi o'rinlarda — esdalik yubiley medali) bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari "1941 — 1945-yillardagi Ulug' Vatani urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" va "Yaponiya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" medallari bilan, urush yillarida jangovar xizmatlari uchun boshqa orden va medallar bilan mukofotlangan yoki urush qatnashchisi guvohnomasiga yoxud Vatani nogironi guvohnomasiga ega bo'lgan

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilganlar, shuningdek, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi front orti mehnat faxriylari, shu jumladan, "1941 — 1945-yillar Ulug' Vatani urushidagi shavkatli mehnati uchun", "Mehnatdagi jasorati uchun", "Mehnatda o'mak ko'rsatganligi uchun" medallariga yoki 1941 — 1945-yillardagi urush davrida Qurolli Kuchlarda fuqaro shaxslarni erkin yollash bo'yicha shtat lavozimida bo'lganligi to'g'risidagi guvohnomaga ega bo'lgan mehnat fronti qatnashchilari mukofotlanadi.

2. Esdalik yubiley medali topshirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri, ichki ishlar vaziri, favqulodda vaziyatlar vaziri, Davlat xavfsizlik xizmati raisi, Milliy gvardiya qo'mondoni, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi raisi, O'zqo'rg'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shahar hokimlari tomonidan mahalliy harbiy boshqaruv organlari, urush va mehnat faxriylari kengashlarining ishtirokida tantanali vaziyatda amalga oshiriladi.

Esdalik yubiley medali olish huquqiga ega bo'lgan shaxs 2025-yil 1-yanvardan so'ng vafot etgan taqdirda, medal uning oila a'zolariga topshiriladi.

3. Esdalik yubiley medallari bilan mukofotlanganlar medal bilan birga belgilangan shakldagi guvohnoma topshiriladi.

Guvohnoma esdalik yubiley medali topshiruvchi shaxs tomonidan imzolansin. 4. Esdalik yubiley medali davlat mukofotlaridan keyin ko'kraking chap tomoniga taqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2025-yil 25-fevraldagi PF-32-son Farmoniga  
2-ilova

### "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medalining TAVSIFI

"Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali (keyingi o'rinlarda — medal) 0,25 mikron qalinlikdagi oltin qoplangan mis qotishmasidan tayyorlanadi va diametri 34 millimetrlilik doira shaklida bo'ladi.

Medalning old tomoni markazida quyosh nurlari fonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan barpo etilgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasidagi o'zining ulkan jasorati va sabr-matnati bilan tarix sahifalariga muhrlangan Zulfiya Zokirova va uning frontdan qaytmagan besh o'g'li, sadoqatli kelinlari xotirasiga bag'ishlangan "Matonat madhiyasi" monumenti kumush rangda hamda uning oldida Mangu olov tasviri zarhal rangda aks ettirilgan.

Monumentning chap va o'ng tomonlarida dafna chambari joylashgan bo'lib, uning quyi qismida yubiley yilini anglatuvchi "80" raqami yozilgan.

Medalning aylanasi bo'ylab chetlari qabariq bo'lgan doira ichida harflarining balandligi 2,5 millimetrlilik "IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI

G'ALABANING" hamda "YILLIGI" so'zlari joylashgan.

Medalning orqa tomonida, diametri 28 millimetr bo'lgan aylananing ichida, ikki qatorda "XOTIRA — ABADIY", "VATAN — MUQADDAS" yozuvlari, uning quyi qismida Ikkinchi jahon urushi tugagan yil va yubiley yilini anglatuvchi "1945 — 2025" raqamlari yozilgan. Aylananing tashqi tomonida quyosh nurlari shaklidagi chiziqli joylashgan.

Yozuvlar qabariq shaklda va zarhallangan.

Medalning qalinligi 3 millimetr.

Medal O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ranglaridagi yo'l-yo'l shoyi mato sirilgan besh burchakli qadag'ich (kolodka)ga halqa va ilmoqcha yordamida ulanadi. Matoning eni 24 millimetr. Ko'k, oq va yashil yo'llar eni 7 millimetrdan, qizil yo'llar eni 1,5 millimetr.

Qadag'ichning balandligi 50 millimetr, eni 45 millimetr.

Qadag'ichning orqa tomoniga medalni kiyimga taqib qo'yish uchun to'g'nog'ich ko'rinishidagi moslama o'rnatilgan.

"Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi"  
esdalik yubiley medali



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2025-yil 25-fevraldagi PF-32-son Farmoniga  
3-ilova

### "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali guvohnomasining TAVSIFI

"Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali guvohnomasi (keyingi o'rinlarda — guvohnoma) 175x125 millimetr o'lchamdagi ko'k rangli vinil bilan qoplangan muqovali kitobcha shaklida bo'ladi.

Guvohnomaning old tomoni (birinchi beti) yuqori chekkasidan 14 millimetr pastda, markazda "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI" (katta harflarda, "Times new Roman Bolt" shrifti, 12 kegl) so'zlari, undan 10 millimetr pastda O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi joylashgan.

Undan 14 millimetr pastda uch qatorda "IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI", "G'ALABANING 80 YILLIGI", "ESDALIK YUBILEY MEDALIGA" (katta harflarda, "Times new Roman Bolt" shrifti, 11 kegl) so'zlari hamda undan 5 millimetr pastda "GUVOHNOMA" (katta harflarda, "Times new Roman Bolt" shrifti, 16 kegl) yozuvi joylashgan.

Yozuvlar tilla rangda aks ettirilgan.

Guvohnomaning ichki tomoni (ikkinchi va uchinchi betlari) "Tangiri" tasviri tushirilgan och havorangda bo'lib, ofset usulida chop etilgan.


Guvohnoma ichki tomonining chap qismi (ikkinchi beti) markazida esdalik yubiley medalining asliga teng o'lchamdagi rangli tasviri aks ettirilgan.

Guvohnomaning ichki o'ng tomoni (uchinchi beti) yuqori chekkasidan 8 millimetr pastda, markazda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining",

"2025-yil \_\_\_-fevraldagi", "Farmoniga muvofiq" ("Times new Roman Bolt" shrifti, 10 kegl) so'zlari yozilgan va mukofotlangan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi qayd etish uchun orqaligi 8 millimetrlilik uchta chiziqli tortilgan.

Pastki chiziqdan quyida, markazda "IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI", "G'ALABANING 80 YILLIGI" (katta harflarda, ko'k rangda, "Times new Roman Bolt" shrifti, 11 kegl), "esdalik yubiley medali bilan taqdirlandi" ("Times

"Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali guvohnomasi



new Roman Bolt" shrifti, 10 kegl) so'zlari yozilgan.

Undan 6 millimetr pastda, markazda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti", "nomidan medal" ("Times new Roman Bolt" shrifti, 10 kegl) yozuvi aks ettirilgan va medali topshirgan shaxsning lavozimi va imzosini qayd etish uchun chiziqli tortilgan.

Uning quyi qismida "tomonidan", "20 \_\_\_-yil \_\_\_ da", "topshirildi" ("Times new Roman Bolt" shrifti, 10 kegl) yozuvlari aks ettirilgan.



## POKISTON BOSH VAZIRI O'ZBEKISTONGA KELDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif 25-fevral kuni rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi.**

Ikki mamlakat xalqlarini mustahkam tarixiy aloqalar bog'lab tursa, bugungi rivojlangan davrdagi hamkorlik izchilligi barqaror va ishonchli bo'ladi. O'zbekiston va Pokistonni ana shunday rishtalar bir-biriga esh qiladi.

Bu rishtalar esa Buyuk ipak yo'lining umumiy madaniy an'analari kabi tarixiy manbalardan quvvat oladi.

Pokiston — Vatanimiz mustaqilligini birinчилardan bo'lib tan olgan mamlakatlardan biri. Ikki davlatning mushtarak manfaatlariga asoslangan hamkorligi yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

Toshkent shahri xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko'tarilib, faxriy qorovul saf tortdi.

So'ng Pokiston delegatsiyasi "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmon Mustaqillik monumenti poyiga gul qo'yd.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asnosida Pokiston delegatsiyasi vakillariga bu yerda aks ettirilgan siymolar va tarixiy voqealar mazmuni haqida batafsil ma'lumot berildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 26-fevral kuni bo'lib o'tadi.

Bo'lajak oliy darajadagi muzokaralar kun tartibidan O'zbekiston — Pokiston strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalari o'rin olgan.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashiladi. Sammit yakunida Qo'shma deklaratsiya va qator ikki tomonlama hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

O'zA.

### Dunyo nigohi

## "DAILY ITTEHAD" GAZETASINING O'ZBEKISTONGA BAG'ISHLANGAN MAXSUS SONI CHOP ETILDI

*Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharifning O'zbekistonga rasmiy tashrifi arafasida ushbu mamlakat "Daily Ittehad" gazetasining O'zbekistonda kechayotgan islohotlar va ikki tomonlama munosabatlarga bag'ishlangan maxsus soni chop etildi.*

Nashrdan jurnalist Muhammad Abbas Xonning "Pokiston va O'zbekiston tinchlik va taraqqiyot yo'lida", BMTning Inson huquqlari qo'mitasi a'zosi, akademik Akmal Saidovning "Yangi O'zbekiston diplomatiyasi: jadal va samarali qadamlar", gazeta bosh muharriri Tahir Faruqning "Lahorda O'zbekiston

sanoat mahsulotlari ko'rgazmasi o'tkazildi" va "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakovning "O'zbekiston — 2030: Yangi davlat dasturining aholi hayotidagi ahamiyati" sarlavhali maqolalari bosilgan. Jurnalist Muhammad Abbas Xonning "Pokiston

va O'zbekiston tinchlik va taraqqiyot yo'lida" sarlavhali urdu tilida chop etilgan maqolasida ikki mamlakat o'rtasida diplomatik va iqtisodiy aloqalar so'nggi yillarda izchil rivojlanib, yanada mustahkamlanayotgani ta'kidlangan. Bosh vazir Shahboz Sharifning O'zbekistonga bo'lajak tashrifi esa o'zaro hamkorlik va mintaqaviy taraqqiyotning yangi davrini ochib berishi, mamlakatlarimiz o'rtasidagi rishtalarni kuchliroq jipslashtirishi, bog'liqlik tashabbuslarini hayotga tatbiq etishni jadallashtirishiga urg'u berilgan.





## "DAILY ITTEHAD" GAZETASINING O'ZBEKISTONGA BAG'ISHLANGAN MAXSUS SONI CHOP ETILDI

"Oliy darajali tashrif chog'idagi ochiq va do'stona siyosiy muloqot iqtisodiy munosabatlarni ilgari surish maqsadida manfaatli savdo yo'laklaridan foydalanish va yangi mintaqaviy bog'liqlik tashabbuslarini kelishish, avtomobil va temir yo'l transport infratuzilmalarini rivojlantirish, milliy iqtisodiyotlar uchun bir-birlarining hamda yangi bozorlarga chiqish uchun sharoit yaratish, mintaqaviy tinchlik, xavfsizlik va barqarorlik uchun hamkorlik qilishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish uchun poydevor bo'lishi kutilmoqda", deb yozgan muallif.

Jurnalist o'z xulosasida O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi strategik hamkorlikning shaxdam qadamlar bilan rivojlanishi nafaqat ikki mamlakat, balki qo'shni mintaqadagi taraqqiyot va umumiy farovonlikka ijobiy ta'sir o'tkazadi, deb ta'kidlagan.

BMTning Inson huquqlari qo'mitasi a'zosi, akademik



Akmal Saidovning "Yangi O'zbekiston diplomatiyasi: jadal va samarali qadamlar" sarlavhali maqolasida Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yildagi faol, pragmatik va ochiq tashqi siyosati, xorijiy hamkorlar bilan oliy darajadagi uchrashuvlar doirasida erishilgan muhim kelishuvlar, diplomatiya yo'nalishida qo'lga kiritilgan yutuqlar hamda oldinda turgan maqsad va vazifalar to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil qalamga olingan.

"Yakuniga yetgan yilda Yangi O'zbekiston olib borgan faol tashqi siyosat sarhisobini xolis tahlil qilar ekanim, shubhasiz global miqyosda shiddatli o'zgarishlar yuz berayotgan, sinov va tahdidlar sharoitida Yangi O'zbekiston diplomatiyasining mamlakatimiz iqtisodiy va siyosiy qudratini yanada yuksaltirish, milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash, jahon hamjamiyatida ijobiy xalqaro imijini mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yutuqlariga guvoh bo'lamiz", deyiladi maqolada.

Shuningdek, muallif 2024-yil davomida Prezident Shavkat Mirziyoyev 17 ta xalqaro tashrifni amalga oshirgani, ular doirasida 100 dan ortiq uchrashuv va muzokaralar o'tkazgani, 140 dan ortiq xalqaro tadbirlarda ishtirok etgani, 264 ta ikki va ko'p tomonlama xalqaro shartnoma va hujjatlar imzolangan, investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar 2000 dan ortgani, investitsiya loyihalar va savdo bitimlari qiymati qariyb 120 milliard AQSH dollarini tashkil etganiga alohida e'tibor qaratgan.

"Daily Ittehad" gazetasi bosh muharriri Tahir Faruq qalamiga mansub "Lahorda O'zbekiston sanoat mahsulotlari ko'rgazmasi o'tkazildi" sarlavhali maqolada esa shu yil 11 - 13-fevral kunlari "Lahore Expo Centre" markazida "Made in Uzbekistan" sanoat ko'rgazmasi o'tkazilgani, uning doirasida umumiy qiymati 500 million AQSH dollariga teng 181 ta shartnoma imzolanganini xabar qilgan.

Uch kun davomida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan to'qimachilik, charm-poyabzal, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, mebel va yog'ochsozlik, kimyo, farmatsevtika sanoati mahsulotlari, qurilish materiallari hamda turizm salohiyatiga bag'islangan ko'rgazmaga 80 mingdan ortiq odam keldi. Tadbir doirasida ikki davlat biznes doiralari o'rtasida 500 dan ortiq "B2B" shaklida muzokaralar o'tkazildi.

Jurnalist Tahir Faruq o'zbek tadbirkorlari delegatsiyasi Panjob viloyatining yirik sanoat markazlari - Faysalobod, Sialkot, Gujranvala, Gujrat, Bahawalpur, Mu'itn va Sheyxpura shaharlariga tashrif buyurib, mazkur hududlardagi ixtisoslashtirilgan korxonalar va ularning ishlab chiqarish quvvatlari bilan yaqindan tanishganini, aniq loyihalar bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishilganini yuksak baholagan.

"Taraqqiyot strategiyasi" markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakov "O'zbekiston - 2030: Yangi davlat dasturining aholi hayotidagi ahamiyati" sarlavhali maqolasida yozganidek, mamlakatimizda 2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturi loyihasi keng jamoatchilik va ekspertlar muhokamasidan o'tkazildi, 100 ga yaqin konseptual hamda mingdan ortiq tashrii takliflar inobatga olingani holda hujjat rasman qabul qilindi.

Maqolada davlat dasturi doirasida aholi hayot sifatini yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan, yashil hududlarni kengaytirish, piyodalar va velosiped yo'laklarini yaratish, ekologik toza jamoat transportini rivojlantirish, yomg'ir va oqova suvlarni qayta ishlash orqali suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha muhim choralar belgilab olingani ijtimoiy davlat qarish borasidagi muhim qadam deya ta'kidlangan.

"Hujjatda 2025-yilda iqtisodiy o'sish kamida 6 foiz, sanoat 6 foiz, bozor xizmatlari 14,5 foiz, qishloq xo'jaligi 4,1 foiz o'sishi maqsadli vazifa sifatida belgilangan. Maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish maqsadida o'lis va chekka hududlarda mobil guruhlar, har bir tuman va shaharda inklyuziv ta'lim talablariga javob beradigan maktablar tashkil etiladi. Shuningdek, 3,5 ming kambag'al o'ila farzandlari oliy ta'lim muassasalariga grant asosida qabul qilinadi" deyiladi maqolada.

"Dunyo" AA.

Islombod

## Oliy Majlis Senatida

# XALQARO ANJUMANGA TAYYORGARLIK QIZG'IN



Oliy Majlis Senatida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasini o'tkazish bo'yicha Tashkiliy qo'mitaning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Tadbirni Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev olib bordi.

Xabar berilganidek, Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga

asosan shu yil 5 - 9-aprel kunlari yurtimizda bo'lib o'tadi. Prezidentimizning 17-yanvardagi tegishli qarori bilan Tashkiliy qo'mita tarkibi hamda chora-tadbirlar rejasini tasdiqlagan. Ta'kidlandiki, ko'plab mamlakatlar parlamentlari rahbarlari va a'zolari, xalqaro tashkilotlarning delegatsiyalari assambleyada ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan.

Assambleyaning "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzui doirasida dunyo parlamentlari

aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish, huquq ustuvorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tajribalari bilan o'rtoqlashadi. Bir hafta davomida Parlamentlararo Ittifoqning qo'mitalari tomonidan inson huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash, ilmiy va texnologiya, yoshlar masalalariga bag'islangan turli tadbirlar uyushtirildi. Tadbirda nufuzli anjumanni yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha mutasaddilar oldida turgan qator vazifalar muhokama qilindi.

"Xalq so'zi".

## OLAM YASHILLIKKA BURKANSA...

Yangi yilga berilgan nomga mos davlat dasturi ishlab chiqilishi xalqimizni ezgu maqsadlar yo'lida jipslashtirishga xizmat qilmoqda. Undagi vazifalar inson huquq va manfaatlarini himoyasi uchun yo'naltirilgan.

### Fikr

"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish insonni asrash va qulay sharoit yaratishni anglatadi. Zero, davlat dasturidagi aksariyat vazifalar aholi turmush tarzini yanada yaxshilash, ijtimoiy masalalarni samarali hal etish bilan chambarchas bog'liq. Unda resurstejamkor iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tish orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini kamida 6 foiz, hajmini 200 mlrd. dollarga yetkazish, inflyatsiyani 5 foiz darajasida saqlash, kambag'allikni qisqartirish, aholi farovonligini oshirish masalalari eng muhim maqsadlar sifatida belgilandi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda transferlardan foydalanishning cheklangan miqdorlarini belgilash bo'yicha sanitariya me'yorlari Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiqlashtirildi.

Kam daromadli oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash muhim strategik yo'nalishga aylandi. Paxta va g'alla maydonlarini qisqartirishdan bo'shagan 100 ming gektar yer maydonini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun ajratish orqali 200 ming nafar aholi bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Dasturdan agrar sohada tuproq agrokimyoviy tahlillarini o'tkazish maqsadida 100 ta portativ-mobil laboratoriyani xarid qilish, organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan yer maydonlari

hajmini 10 ming gektarga yetkazish o'rin olgan.

Aholi salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish hamda inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratishda amalga oshiriladigan vazifalar davlat dasturidagi 5 ta



sayr ko'chalari"ni ko'paytirish masalasi. Aholi punktlariga yaqin suv tarmoqlari, ariqlar, kanallar bo'yilarida sayilgohlar tashkil etilib, 80 ta infratuzilma

**"Dasturning muhim jihatlardan yana biri - mahallalarning yashillik darajasini oshirish, piyodalar hamda velosiped yo'laklarida daraxt ko'chatlarini ekish, "Soyali sayr ko'chalari"ni ko'paytirish masalasi. Aholi punktlariga yaqin suv tarmoqlari, ariqlar, kanallar bo'yilarida sayilgohlar tashkil etilib, 80 ta infratuzilma obyektlari va 110 kilometr dan ortiq sog'lomlashtirish yo'laklari quriladi. "Mening bog'im" loyihasi bo'yicha 200 mln. tup daraxt ko'chati ekiladi.**

yo'nalish va 100 ta maqsadga aniq belgilandi. O'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytirish, tabiiy xilmaxlilikni ta'minlagan holda keyingi avlodga yetkazish muhimligi, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish orqali qayta tiklanuvchi energiya ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish ham muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Dasturning muhim jihatlardan yana biri - mahallalarning yashillik darajasini oshirish, piyodalar hamda velosiped yo'laklarida daraxt ko'chatlarini ekish, "Soyali

obyektlari va 110 kilometr dan ortiq sog'lomlashtirish yo'laklari quriladi. "Mening bog'im" loyihasi bo'yicha 200 mln. tup daraxt ko'chati ekiladi.

Orol dengizining qurigan tubida 100 ming gektar "yashil maydon" barpo etilib, sho'r va

Davlat dasturining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda Senat a'zolari, mahalliy Kengashlar deputatlari parlament va deputatlik nazoratini olib borish, qonunchilik targ'ibotini jonlantirish, har bir xonadon va xonxonaning "yashil belbog'"larini tashkil etib, atrof-muhitni asrash masalasi alohida e'tibor qaratishi zarur.

suvsizlikka chidamli o'simliklar ekiladi. Natijada o'rmon bilan qoplangan hududlar hajmi 4,1 mln. gektarga yetadi, muhofaza qilinadigan tabiiy landshaftlar 14,5 foizgacha kengayadi. Qishloq xo'jaligi yerlari va tomorqa xo'jaliklaridan samarali foydalanish ayni dolzarb.

"Ekofal fuqaro" hayot tarzini keng targ'ib qilishga yo'naltirilgan "Bir million yashil o'ila" umummilliy harakati yo'lga qo'yiladi. Piyoda yurishni, velosipedda harakatlantirishga qaratilgan vazifalar belgilandi. Oilaning barcha voyaga yetgan a'zolari "Ekofal fuqaro" maqomini olganda "yashil o'ila" maqomini berish, ularga har yili lotereya orqali 14 ta elektromobil ajratish masalalari kiritilgan. Aholisining yarmi "yashil o'ila" maqomini olgan mahallalarda "Eng toza mahalla" va "Eng yashil mahalla" tanlovlari o'tkazilib, 500 mln. so'm ajratiladi.

Joriy yilning 1-maydan boshlab Toshkent va Nukus shaharlari, viloyat markazlarida asbest, sement ishlab chiqarish, teri-ko'ncilik, parrandachilik fabrikalarini tashkil etish, samaradorligi yuqori bo'lgan chang-gaz tozalash inshootlari bilan jihozlanmagan har qanday turdagi ko'mir yoqish korxonalarini, qora metallurgiya zavodlari, tarkibida zaharli aralashmalar bo'lgan turli oyna va kimyoviy moddalar bilan ishlaydigan korxonalarni cheklash rejalashtirilmoqda.

Davlat dasturining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda Senat a'zolari, mahalliy Kengashlar deputatlari parlament va deputatlik nazoratini olib borish, qonunchilik targ'ibotini jonlantirish, har bir xonadon va xonxonaning "yashil belbog'"larini tashkil etib, atrof-muhitni asrash masalasi alohida e'tibor qaratishi zarur.

Anvar TO'YCHIYEV,  
Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi.

## Senator va hayot

# MUAMMOLAR YECHIMIGA AMALIY YONDASHUV

Senatorlar joylarda muammolarni aniqlash va ularga yechim topish maqsadida turli uchrashuvlar o'tkazib, yaratilgan shart-sharoitlarni tahlil qilib, amaliy tavsiyalar berib kelmoqda.

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zosi Zumrad Bekatova Qashqadaryo viloyatida xalq deputatlari Shahrisabz shahar va Qarshi tumani Kengashlari faoliyati bilan tanishdi.

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining Korruptsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi a'zolari, barcha tuman va shahar Kengashlari deputatlari bilan uchrashuvlar o'tkazilib, Senatning uchinchi yalpi majlisida qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati to'g'risida tushuntirish berildi. Deputatlarning takliflari o'rganilib, savollariga javob berildi.

Qarshi shahridagi Oydin, Shahrisabz shahridagi Navro'z va Kesh, Qarshi tumanidagi Yertepa mahallalarida bo'lib, fuqarolar bilan suhbatlashildi. Tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy soha obyektlari faoliyati bilan tanishilib, yaratilgan shart-sharoitlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar holati, tashvishlantirayotgan masalalar yuzasidan muloqot bo'lib o'tdi.

Qarshi tumanidagi 52-oilaviy poliklinikada yaratilgan sharoitlar ko'zdan kechirilib, muassasadagi bemorlar holidan xabar olindi.

Senator viloyat prokurorining, ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining, Majburiy ijro byurosining, Xalq qabulxonasining hamda viloyat 2-sektor rahbarining 2024-yil yakuni bo'yicha axborotlari bilan tanishib, taklif va tavsiyalarini berdi.

Senator Gulnora Ma'rufova aholi murojaatlari bilan ishlash, mahalliy Kengashlar faoliyatiga ko'maklashish hamda tadbirkorlar bilan muloqot qilish maqsadida Farg'ona viloyatida o'rganishlar o'tkazmoqda.

Zo'yovon tumanidagi murojaatlarni ijobiy hal etish yuzasidan "Yangi O'zbekiston" massivi hududida qurilishi rejalashtirilgan Madaniyat uyi loyihasi bilan tanishdi.

Yoshlik mahallasidagi 840 nafar o'quvchiga mo'ljallangan maktab qurilishi jarayonini o'rgandi. Respublika darajasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar bo'yicha birlamchi hujjatlarini taqdim holati, tashvishlantirayotgan masalalar yuzasidan muloqot bo'lib o'tdi.

## DENOVDAGI KO'PRIKLAR E'TIBORGA MUHTOJ

Mamlakatimizda yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish, avtomobil yo'llari va ko'priklarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta'mirlash ishlari izchil davom etmoqda. Biroq Surxondaryo viloyati, xususan, Denov tumanidagi ayrim ko'priklar va yo'llarning holati hali ham o'nglanmay, aholi uchun dolzarb muammo bo'lib qolayotgani taassuflanarlidir.

Senator A. Eshmuratov mazkur masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga murojaat qildi. Unda ta'biy ofat (sel toshqini) oqibatlaridan zarar ko'rgan Denov tumanidagi Sunbula va Sina mahallalarini bog'lovchi ko'priklarni qayta qurish ishlari moliyalashtirilmayotganiga e'tibor qaratilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra Sunbula mahallasi hududidagi ko'priknin qayta qurish uchun 3,7 mlrd. so'm, Sina mahallasini tuman markazi bilan bog'lovchi

ko'priklar uchun esa 4,35 mlrd. so'm ajratilishi lozim. Biroq moliyaviy masalalar o'z vaqtida hal qilinmagani sababli obyektlardagi ishlar to'xtab qolgan.

Senat a'zosi A. Eshmuratov mazkur yo'llarning qurilishi va ta'mirlanishi bo'yicha muvofiqlashtirish masalalari yuzasidan 2025-yil 5-martga qadar tushuntirish berish yoki Avtomobil yo'llari qo'mitasining mazkur yo'nalishdagi rejalarni ma'lum qilishni so'rab senator so'rovini yo'lladi.

"Xalq so'zi".

# MINTAQAVIY HAMJIHATLIK ALOQALARI KENGAYADI

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligi O'zbekistonning ochiqlik va xayrixohlikka asoslangan pragmatik mintaqaviy siyosati tufayli yangi bosqichga ko'tarildi. Mintaqaviy hamjihatlikni rivojlantirish borasida tarixiy natijalarga erishilmoqda.

### Munosabat

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Markaziy Osiyo - asrlar davomida umumiy madaniy makonga ega yagona organizm. Yagona tarix, tillarning o'xshashligi, umumiy urf-odatlar va qadriyatlar kelajakni birgalikda va o'zaro hamkorlikda qurish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi", deya ta'kidlagandi.

Mintaqa xalqlarining ko'p asrlik tarixi, madaniyati, dini va tili, umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi davlatlararo yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga yakkil javob qaytarish, hal etishning samarali yo'llarini aniqlash va birgalikda taraqqiyotga intilish uchun muhim asos yaratadi. Markaziy Osiyo davlatlari o'z



uchun muhim harakatlarni amalga oshirmoqda. Tashqi siyosiy faoliyatda mintaqadagi qardoshlarimiz, jumladan, Tojikiston Respublikasi bilan yaqin qo'shniqlik va do'stlik aloqalari mustahkamlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida 225 ta ikki tomonlama hujjatlar imzolangan.

Xalqaro huquq normalariga amal qilgan holda mintaqaviy muhojirlarni tinch yo'l bilan hal etish, suv-energetika sohasida o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish, parlament diplomatiyasini takomillashtirish va o'zaro aloqalarni mustahkamlash kabi yo'nalishlardagi hamdo'stlikni

yanada rivojlantirishga oid qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish taqozo etilmoqda.

Shu maqsadda Oliy Majlis Senatining uchinchi yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnoma (Dushanbe, 2024-yil 18-aprel) ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Mazkur Shartnoma Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 18-aprelda Tojikiston Respublikasiga davlat tashrif doirasida Dushanbe shahrida imzolangan. Qonun bilan iqtisodiy, investitsiyaviy, fan-texnika, madaniyat, ta'lim, sport va turizm sohasida aloqalarni chuqurlashtirish, terrorizm, ekstremizm va transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishga huquqiy asos yaratiladi.

Qonun 26 ta maddadan iborat bo'lib, 40 dan ortiq

masalalar kelishib olingan. Unda oliy ahdlashuvchi tomonlarning ko'p qirrali hamkorligini yanada mustahkamlash maqsadida parlament diplomatiyasini, ikki davlat qonun chiqaruvchi organlarining do'stlik guruhlari yo'nalishida hamda xalqaro parlamentlararo tashkilotlar doirasida yaqin sheriklikni qo'llab-quvvatlashlari qayd etilgan. Tomonlar asosiy ustuvor yo'nalishlar doirasida keng qamrovli aloqalarni rivojlantirishga intiladi. Xavfsizlikning yangi xavf-xatarlari va tahdidlariga, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, xalqaro xavfsizlik, kibermakondagi tahdidlarga qarshi kurashishda hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirib, bilashtiradi.

Tinchlik va barqarorlikni saqlash maqsadida mavjud

Mazkur qonun ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni ittifoqchilik darajasiga ko'tarish, mintaqaviy xavfsizlik va taraqqiyot uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

xalqrohuquqiy majburiyatlari va o'z qonunchiliklari qoidalarini inobatga olgan holda harbiy va harbiy-texnikaviy ittifoqchilikni kengaytirishga intiladi. Ikki davlat o'z Qurolli Kuchlari o'rtasida qo'shma tezkor va javgovar tayyorgarlik tadbirlarini o'tkazish, harbiy sohada kadrlar va mutaxassislar salohiyatini oshirish masalalarida munosabatlarni mustahkamlaydi.

Oliy ahdlashuvchi tomonlardan birining fikriga ko'ra uchinchi davlatlar tarafidan qurolli hujum xavfini tug'diruvchi vaziyat yuzaga kelgan holda bir-biri bilan ham ikki tomonlama asosda, ham xalqaro tashkilotlar doirasida tinch yo'l bilan hal etishga ko'maklashuvchi choralarini ko'rish maqsadida zudlik bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkaziladi.

Jamila BOBANAZAROVA,  
Oliy Majlis Senati a'zosi.

"Yangi davrda parlament chinakam xalq uyi, uning quyi palatasi esa g'oyalar generatoriga, sog'lom raqobat, bahs va munozaralar maydoniga aylanishi kerak".

Shavkat MIRZIYOYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

YANGI CHAQIRIQ OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI:

100 KUN



Yangi tarkibdagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini boshlaganiga 100 kun bo'ldi. Davlatimiz rahbari 18 - 20-noyabr kunlari parlament palatalari majlislaridagi nutqlarida Oliy Majlis, shu jumladan, Qonunchilik palatasi oldida ulkan vazifalar turganini ta'kidlab, bir qator muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surgan edi. Parlament faoliyatida yangicha ishlash, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish bo'yicha tavsiyalar berilgandi.

Hayotiy, xalqchil va manfaatli

Dilmurod ARTIKOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:



O'tgan davrda palatada qonun ijodkorligi jarayoni ancha jonlandi. Jamiyatimizdagi dolzarb muammolar yechimiga, xalqimizning og'irini yengil qilishga qaratilgan bir qator muhim qonunlar qabul qilindi. Jumladan, palatada jami 48 ta qonun qabul qilinib, Senatga yuborildi.

O'tgan 100 kunlik davomida qabul qilingan yana muhim hujjatlardan biri, bu - jinoyat ishini yuritish chog'ida shaxsni qonunlar qabul qilindi. Jumladan, palatada jami 48 ta qonun qabul qilinib, Senatga yuborildi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qonun bu borada alohida ahamiyatga ega.

Ushbu hujjat fuqarolarning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun ham muhim hujjatlardan biri, deyish mumkin. Uning ahamiyatli jihati - qonunga deputatlar tashabbusi bilan muhim o'zgartirish kiritilganidir.

Ya'ni qonun tashabbuskorlari jismoniy shaxslar tomonidan o'zlarining nomiga kredit olishni rasmiylashtirishga taqiy olib tashlash bilan bog'liq jarayonni pullik, deb kiritishgandi.

Siyosiy partiyalar fraksiyalari a'zolari takliflari, deputatlar tashabbusi asosida ushbu amaliyot bepul amalga oshirilishi haqidagi

normaga o'zgartirildi. Albatta, bu xalq vakillarining aholi manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshirayotgan tashabbuslari natijasidir.

O'tgan 100 kunlik davomida qabul qilingan yana muhim hujjatlardan biri, bu - jinoyat ishini yuritish chog'ida shaxsni qonunlar qabul qilindi. Jumladan, palatada jami 48 ta qonun qabul qilinib, Senatga yuborildi.

O'tgan 100 kunlik davomida qabul qilingan yana muhim hujjatlardan biri, bu - jinoyat ishini yuritish chog'ida shaxsni qonunlar qabul qilindi. Jumladan, palatada jami 48 ta qonun qabul qilinib, Senatga yuborildi.

O'tgan 100 kunlik davomida qabul qilingan yana muhim hujjatlardan biri, bu - jinoyat ishini yuritish chog'ida shaxsni qonunlar qabul qilindi. Jumladan, palatada jami 48 ta qonun qabul qilinib, Senatga yuborildi.

O'tgan 100 kunlik davomida qabul qilingan yana muhim hujjatlardan biri, bu - jinoyat ishini yuritish chog'ida shaxsni qonunlar qabul qilindi. Jumladan, palatada jami 48 ta qonun qabul qilinib, Senatga yuborildi.

O'tgan 100 kunlik davomida qabul qilingan yana muhim hujjatlardan biri, bu - jinoyat ishini yuritish chog'ida shaxsni qonunlar qabul qilindi. Jumladan, palatada jami 48 ta qonun qabul qilinib, Senatga yuborildi.

Budjet ijrosini nazorat qilish mexanizmlari yanada kuchaytiriladi

Baxtiyor ARTIQOV, Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari:

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ko'ra davlat byudjeti ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatiga kiradi. Shu bois o'tgan yil oxirida "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonunni qizg'in muhokamalar asosida qabul qildik. Uning samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Zero, Prezidentimiz bu muhim vakolat deputatlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklashini ta'kidlab, davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish masalasi ko'targan edi. Shundan kelib chiqib, Qonunchilik palatasi tomonidan Hukumatning Davlat byudjetiga doir barcha hisobotlarini quyi palataga faqat Byudjet kodeksida belgilangan audit xulosasi bilan birgalikda kiritish masalasi o'rganib chiqildi.

Ma'lumki, Byudjet kodeksining 25, 26-moddalariga muvofiq respublika byudjet va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot tashqi audit va baholashdan o'tkazilib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qonunchilik palatasiga taqdim etiladi. Lekin byudjet ijrosi bo'yicha choraklik hisobotlarga nisbatan bunday amaliyot yo'lga qo'yilmagan.

Bu esa byudjet mablag'larining sarflanishida shaffoflikni ta'minlash va hisobotlar haqqoniyligini tekshirish imkoniyatini cheklamoqda.

Byudjet ijrosi bo'yicha hisobotlarni tashqi audit va baholash orqali Qonunchilik palatasiga taqdim qilish deputatlar uchun byudjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish, noqonuniy yoki samarasiz xarajatlarning oldini olish, byudjet qonunchiligiga rioya qilishga oid xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tashqi audit tekshiruv xulosalari, nafaqat byudjet mablag'larini sarflanishida, shuningdek, byudjet ijrosi jarayonidagi moliyaviy xatarlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishda vazirlik va idoralarning javobgarligi va mas'uliyatini yanada oshiradi.

Prezident belgilab bergan vazifalardan kelib chiqib, davlat byudjeti ijrosi ustidan nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlandi.

11 ta rezolyutsiya targ'ibotida interfaol format tanlandi

Ziyodbek YUNUSOV, Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zosi:



Davlatimiz rahbari ushbu masalaga to'xtalib o'tgani bejiz emas. O'zbekiston BMTning faol a'zosi sifatida milliy siyosatga qabul qilingan rezolyutsiyalarni samarali amalga oshirish uchun bir qator institutsional mexanizmlarni ishlab chiqqan.

Biz, deputatlar hududlarda bo'lib saylovchilar bilan uchrashar ekanmiz, ularning mazmun-mohiyati va ahamiyatini atrofchiga tushuntirishga harakat qilaymiz. O'z navbatida, yurtdoshlarimiz qabul qilingan qarorlarning ahamiyatini qayd etib, tinchlik va xavfsizlikni saqlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy rivojlanish, iqlim o'zgarishi oqibatlarining oldini olish chora-tadbirlar, atrof-muhit muhofazasi va boshqa masalalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirmoqda.

Qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish maqsadida Oliy Majlisda deputatlar, senatorlar,

Jamoatchilik kengashlari katta ovozga aylanmoqda

Gulruh AGZAMOVA, Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi raisi:



Prezidentimiz Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi nutqida qo'mitalar faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari bilan muloqotni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega ekanligiga urg'u berib, har bir qo'mita qoshida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlari tuzish taklifini ilgari surgan edi.

Mana, oradan hech qancha vaqt o'tmay, bu tashabbus hayotga to'liq tatbiq etilib, fuqarolik jamiyati institutlari va parlament o'rtasidagi muloqot yangi bosqichga chiqmoqda. Ya'ni biz xalqimiz ichiga yanada chuqurroq kirib borib, ularni qiyinayotgan muammolar bo'yicha samaraliroq yechimlar ishlab chiqaymiz. Ilgari bu boradagi hamkorlik tizimsiz bo'lgan bo'lsa, mana endi jamoat kengashlari katta ovozga aylanmoqda.

Qo'mitamiz qoshida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani), Demokratik jarayonlarni tahlil qilish

Shu nuqtayi nazardan, asosiy funksiyasi - jamoatchilik nazorati bo'lgan qo'mitalar qoshidagi jamoatchilik kengashlari ta'sirchan parlament nazoratini olib borish, joylardagi masalalarni nazorat-tahlil tartibida o'rganishda jonbozlik ko'rsatishi, kerak bo'lsa, tashabbuslar generatori bo'lishi lozim.

O'z navbatida, kengash a'zolari nafaqat qabul qilinayotgan qonunlar targ'ibotchisi, balki amaldagi qonunlarni takomillashtirish yuzasidan konstruktiv fikrlar bildiradigan jonkuyar bo'lishi zarur bo'ladi.

Muhimi, bu kengashning ovozi eshitilishi. Fuqarolar dardini gapiradigan, muammoni hal qila oladigan, yugur-yugurlar kamayishiga yordam beradigan, xalq tomonida bo'ladigan kengash bo'lishiga barcha deputat kamarbasta bo'lsa, yangi davrda parlament chinakam xalq uyi, sog'lom raqobat, bahs va munozaralar maydoniga aylanadi.

Partiya ro'yxati asosida saylangan deputatlar ham barcha masalaga daxldor

Firdavs SHARIPOV, Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi a'zosi:



Hozirgi vaqtda yagona saylov okrugining partiyalar ro'yxati asosida saylangan deputatlar ham okruglarga doimiy birlashtirilgan, aholini qiyinayotgan muammolar yechimiga mas'ul bo'lmoqda.

Bilamizki, Qonunchilik palatasining majoritar tizim asosida saylangan deputatlarining saylov okruglaridagi faoliyatini hamda saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishning huquqi asoslari yaratilgan.

Bu boradagi amaliyot samarali yo'lga qo'yilgan. Davlat rahbari oldimizga qo'ygan asosiy masala, ya'ni yagona saylov okrugining partiyalar ro'yxati asosida saylangan deputatlarini hududlarga birlashtirish va ularning faoliyatini to'g'ri tashkil qilishdan iborat edi.

biriktirdi. Bunda kelib e'tibor partiya bir mandatli saylov okruglaridan o'rin olmagan hududlarga qaratilgan.


Joriy yilning yanvar oyi oxiriga haftasida deputatlar saylov okruglarida, hududlarda bo'lishi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ular yangi qabul qilingan qonunlarning mazmunini saylovchilarga yetkazish, qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil hamda fraksiyalar faoliyati to'g'risida saylovchilarga axborot bergan.

Mamlakatimiz rahbari yangicha siyosiy-huquqiy sharoitda partiyaviy va fraksiyaviy intizomni mustahkamlash masalasi ham asosiy e'tiborda bo'lishi kerakligini ta'kidlagan edi. Shundan kelib chiqib, Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari o'z Nizomini qabul qildi. Unda fraksiya faoliyatini tashkil etish, fraksiya a'zosi bo'lgan huquq va majburiyatlari, uning faoliyatini boshqarish kabi masalalar belgilangan.

Bu esa, o'z navbatida, partiyaviy va fraksiyaviy intizomni mustahkamlash, siyosiy partiya g'oyalari yakkilik bilan himoyalash hamda amalga oshirishga imkon beradi.

Parlament komissiyasi qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtiradi

Bobur BEKMURODOV, Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi raisi:



O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lida faol siyosat olib bormoqda. Bugungi kunga kelib mamlakatimiz AQSH, Xitoy, Yaponiya, Turkiya, Braziliya, Saudiya Arabistoni kabi 23 ta JST a'zolari bilan milliy bozorimizga ushbu davlatlar mahsulotlari va xizmatlarining kirishi shartlarini kelishish bo'yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunladi. Shuningdek, tashkilotga a'zo bo'lib kirish shartlarini qayd etuvchi hisobot loyihasi shakllantirildi.

Mazkur jarayonlarni huquqiy jihatdan ta'minlashga ko'maklashish, milliy qonunchilikni JST bitimlariga

uyg'unlashtirish borasidagi ishlar bo'yicha samarali parlament nazoratini tashkil etish maqsadida quyi palataning Qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha komissiyasi tashkil etildi.

Qayd etish kerak, ushbu komissiyani tashkil etish Prezidentimiz tashabbuslaridan biridir. Hozirgi vaqtda Komissiyaning 2025-yil uchun ish rejasi tasdiqlandi. Unda tahlil va tadqiqotlarni o'tkazish, amaliy tadbirlar, jumladan, seminar va eshituvlarni tashkil etib borish, mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishi jarayonlari doirasidagi yig'ilishlarda ishtirok etish, quyi palataga kirib kelayotgan qonun loyihalarini JST talablariga muvofiqliq nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish va muvofiqlashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish kabi aniq vazifalar belgilandi.


Shuningdek, Komissiya O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi jarayonlari samarali amalga oshirish yuzasidan xalqaro parlamentlararo aloqalarni yo'lga qo'yishni rejalashtirgan.

Yana bir muhim masala - Komissiya faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Prezidentining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili ofisi bilan hamkorlik o'rnatildi.

Komissiya Davlat dasturi asosida tasdiqlangan qonunchilik harakatlari rejasiga muvofiq qator qonunlarning qabul qilinishini jadalashtirish borasida ham samarali faoliyat olib boradi.

Munosabatlar qarama-qarshilikka emas, konstruktiv muloqotga asoslanadi

Shuhrat YAKUBOV, Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi a'zosi:



Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi tarixiy nutqida parlament va hukumat o'rtasidagi munosabatlarda faqat tanqid emas, birgalikda muammoga yechim izlash, hamkorlikda parlament nazoratini amalga oshirish zarurligini qayd etgan edi. Vazirliklar hisobotlarini qo'mitalarda eshitish tizimi va vazir o'rinbosarlarini quyi palatadagi qo'mitalarga birlashtirish mexanizmini joriy etish tashabbusi ilgari surilgandi.

Mana, oradan 100 kun o'tib, bu tashabbuslar to'liq amalga oshmoqda. Buni so'nggi paytlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida amaliyotida hukumat va vazirliklar bilan o'zaro hamkorlikning yangicha, zamonaviy shakllari rivojlanib borayotgani misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Chunki o'tgan davrda ushbu tizimning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. Avvalo, Qonunchilik palatasining Harakat dasturida ushbu masalalar alohida mustahkamlandi. Amalga oshirish zarur bo'lgan vazifa sifatida jiro muddatlari, mas'ullari, amalga oshirish mexanizmlari qat'iy belgilandi. Qonun ijodkorligi, parlament nazoratini amalga oshirish, aholini tashvishga solayotgan muammolarni o'rganish, tahlil qilish va bartaraf etishda yuqoridagi hamkorlikka asoslanadigan muloqot yangi tizim amaliyotga joriy etildi.

Qonunchilik palatasining qo'mitalariga tegishli sohalar bo'yicha vazir o'rinbosarlari birlashtirildi. Xususan, biz faoliyat olib borayotgan Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasiga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari, Madaniyat vazirining o'rinbosari birlashtirildi.

Bugungi kunda ular bilan hamkorlikda samarali ishlar olib borilmoqda. Masalan, ta'lim sohasidagi masalalar bo'yicha fuqarolarning murojaatlari asosida kelib tushgan yoki saylov okruglariga borib aniqlangan muammolarning yechimi bo'yicha vazir o'rinbosarlari bilan muhokamalar tashkil etish va masalani tezkor hal qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yana bir yangi hamkorlik yo'nalishi sifatida tegishli vazirliklar hisobotlarini qo'mitalarda eshitish amaliyotini qayd etish o'rini. Avvallari, asosan, vazirlarning hisobotlari parlament nazorati doirasida "parlament eshituvi" yoki "hukumat so'rovi" ko'rinishida amalga oshirilardi. Vazirlik hisobotlarini qo'mitalarda eshitish amaliyotining joriy jihatlari shundayki, mavjud muammolarni batafsil tahlil qilish, uning sabablarini atrofchiga muhokama etish va oson yo'llar bilan uning yechimini topishga imkon bermoqda.

Bundan tashqari, Qonunchilik palatasining Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish masalalari hamda Jamoaviy tashabbuslar bo'yicha komissiyalari ham tuzilgan bo'lib, ular o'z yo'nalishlari bo'yicha faol ish olib bormoqda.

Umuman, bunday o'zaro hamkorlikda ishlash tizimi parlament faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning joriy natijalari qonun ijodkorligida ham, nazorat tahlil faoliyatida ham, saylovchilar bilan ishlashda ham yaqqol namoyon bo'layotir.

Aks sado

## AHOLI ROZILIGI YO'LIDAGI TARIXIY QADAMLAR

Mamlakatimizda 2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturi loyihasi keng jamoatchilik va ekspertlar muhokamasidan o'tkazilib, yaqinda rasman qabul qilindi. Muhokamalar parlamentning ikkala palatasida, siyosiy partiyalar, mehnat jamoalari, yoshlar orasida va mahallalarda faol o'tkazildi. Jarayonlar keng jamoatchilikka ochiq tarzda yetkazilib, ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borildi. Bunday ochiq muhokamalar aholining siyosiy jarayonlarga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning faol ishtirokini ta'minladi.



Davlat dasturida nazarda tutilgan muhim tashabbuslar haqida xabaridrok oshirish va fuqarolarning qimmatli takliflarini olish maqsadida bir qator tadbirlar o'tkazildi. Natijada aholi va ekspertlarning yuzga yaqin konseptual hamda mingdan ortiq tahririy takliflari qabul qilindi.

E'tiborli jihati shundaki, muhokamalarda nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xalqaro hamjamiyat va xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar ham faol ishtirok etdi. Ular tomonidan bildirilgan takliflar dasturni takomillashtirishda inobatga olindi.

Jumladan, davlat dasturi doirasida aholi hayot sifatini yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Birgina "yashil" iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya manbalari – quyosh hamda shamol energiya manbalari samarali foydalanish yo'nalishida hududlarda 74 172 ta quyosh paneli o'rnatilib, 785 MVt qo'shimcha quvvat yaratilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, quvvati 225 MVt bo'lgan gidroelektr stansiyalarini barpo qilish, bu chora-tadbirlar orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 40 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida aholi uylarida energiya tejamlor uskunalar o'rnatish uchun maxsus subsidiyalari ajratilishi, Orol dengizi tubida 100 ming gektar yashil maydon barpo etilishi ayni muddaodir. Bu ekologik muhitni yaxshilashga katta hissa qo'shadi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish maqsadida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish,

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. 2025-yilda iqtisodiy o'sish kamida 6 foiz, sanoat – 6, bozor xizmatlari – 14,5, qishloq xo'jaligi 4,1 foizga o'sishi nazarda tutilgan. Ekspert salohiyatini oshirish maqsadida mahalliy tadbirkorlar uchun korxonabay ishlash tizimiga o'tilib, ularning mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarishda qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirildi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida islohotlar davom etadi. Maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish maqsadida o'lib va chekka hududlarda mobil guruhlarni tashkil qilindi. Bunda maxsus jihozlangan avtobuslar ajratilib, bolalar o'yin maydonchalari barpo etildi. Uydagi ta'lim o'quvchilari uchun qulayliklar yaratish maqsadida bolalar uchun mobil qurilmalarda ishlaydigan maxsus platforma yaratiladi, elektron va videodarsliklar turli yoshdagi o'quvchilarga ehtiyojlariga moslashtiriladi hamda "Onlayn mentorlik" tizimi joriy qilinadi. Bu esa o'quvchilarga pedagogik yordam olish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, har bir tuman (shaharda) inklyuziv ta'lim talablariga javob beradigan maktablar tashkil etilishi, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 3,5 ming kambag'al oila farzandlari oliy ta'lim muassasalariga grant asosida qabul qilinishi, sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash doirasidagi chora-tadbirlar ham aholi roziligi yo'lidagi islohotlarning mantiqiy davomi ekanligini tasdiqlaydi.

Davlat dasturi O'zbekistonning barqaror rivojlanishi, aholi farovonligini oshirish va ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu tashabbuslar nafaqat hozirgi, balki kelajak avlod uchun ham mustahkam poaydevor yaratishga xizmat qiladi.

**Eldor TULYAKOV,**  
"Taraqqiyot strategiyasi"  
markazi ijrochi direktori.

## AJDODLAR MEROSIGA MUNOSIB AVLOD

Mamlakatni har tomonlama rivojlantiruvchi kuch, bu – yoshlar. Hozirgi kunda yurtimizda dunyoni yangicha idrok etadigan, millat g'ururi va haq-huquqi uchun kurashadigan, o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog'liq ko'rib faoliyat olib borayotgan yangi avlod shakllanmoqda.

### Mushohada

Yaqinda amalga oshirilayotgan islohotlar va yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanayotgan yoshlar bilan ishlash samaradorligini yanada oshirish hamda keng imkoniyatlar yaratish chora-tadbirlari yuzasidan Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan navbatdagi muloqoti juda sermazzun o'tdi. Aytish mumkinki, bu ham yoshlarga berilayotgan e'tibor davlat miqyosida yangicha tus o'layotganligidan dalolat.

Prezidentimiz yoshlarning mamlakat kelajagidagi o'rni muhim ekanligini ta'kidlab, rahbarlar har doim ularni tinglashi, "yoshlarning buyuk kelajagimizning asosiy bo'g'ini ekanligini tushunmagan rahbar esa bizing safimizda bo'lishga haqqi yo'qligini alohida ta'kidladi. Chunki ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlarini kengaytirish, ular, albatta, mamlakatning barqaror rivojlanishi va farovon kelajagini ta'minlashda muhim bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarni ishsizlikdan xoli qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar soni har yili 600 mingdan ortiq bo'lib, 2030-yilga borib, bu ko'rsatkich 1 million nafarga yetishi, buning uchun hozirdan zamin yaratib borish kerakligi ta'kidlandi. Uchrashuvda davlatimiz rahbari yoshlar tadbirkorligi uchun muhim bo'lgan uch hujjatga imzo qo'yganini ma'lum qildi. Unga ko'ra Yoshlar ishlari agentligi huzurida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etilib, unga 100 million dollar ajratiladi, yoshlarga imtiyozli kreditlar va startaplar uchun investitsiyalar ajratiladi, oliyog'li bitiruvchilarning g'oya va



tashabbuslari loyihasi uchun yangi bank xizmatlari joriy qilinadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, oliy ta'lim bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishi muhim masaladir. Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va professor-o'qituvchilari talabavoyshlarga ish bilan ta'minlanishda ko'makchi va zarur o'rinishda maslahatchi bo'lmog'i, har bir yosh o'z o'rnini topishi uchun sa'y-harakat ko'rsatmog'i dardor. Bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish holati oliy ta'lim muassasasining reytingini bildiradi, bunda ish bilan ta'minlanish holati ijobiy bo'lsa qo'shimcha ustamalar joriy qilinishi, ko'rsatkich salbiy bo'lgan OTMning faoliyatini davom ettirish masalasi ko'rib chiqilishi ta'kidlandi.

Oliy ta'lim muassasalari sonining uch baravar oshishi, yoshlarning oliy ma'lumotli va kasb egallashida muhim jihat hisoblanadi. Shuningdek, xotin-qizlar uchun ajratilayotgan grantlar, ularning kontrakt to'lovi davlatimiz tomonidan qoplab berilganing o'zi ularga berilayotgan e'tiborni ko'rsatadi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida "Men bir hayotiy fikrni takrorlashdan charchamayman: bitta qizni o'qitsak, butun oilani o'qitgan bo'lamiz. Oila bilimli, ma'rifatli bo'lsa, butun jamiyat bilimli, ma'rifatli bo'ladi. Bu boradagi ishlarni yanada jadal davom ettiramiz", deb jamiyatda

xotin-qizlarning o'rni naqadar muhim ekanini bildirdi.

Xorijiy tillarni o'rganib, turli grantlarni qo'lga kiritayotgan yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. O'tgan yillar davomida chet elda o'qib kelgan 800 nafar yigit-qizning o'qish bilan bog'liq xarajatlari davlat tomonidan qoplab berilgan bo'lsa, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali so'nggi 7 yilda bu ko'rsatkich 3 baravarga ortgan.

Muloqotda xorijiy tillardan "C1" darajasiga ega bo'lgan yoshlar tashabbus ko'rsatib, o'lis va chekka hududlarda chet tilga ixtisoslashtirilgan o'quv markazlarini ochishi uchun 120 million so'mgacha foizsiz ssuda berilishi aytib o'tildi. Shundan kelib chiqib aytib, Buxoro davlat pedagogika institutida xorijiy tillardan "C1" darajaga ega bo'lgan 100 ga yaqin talaba-yoshlar tahsil olmoqda. Hozir institut hududida faoliyat olib borayotgan xorijiy tillarni o'rgatish o'quv markazining filiallarini viloyatimizning chekka hududlarida ochib, yoshlardan bunday loyihalardan unumli foydalanishi masalasi ko'rib chiqilyapti.

Prezidentimiz tashabbuslaridan yana biri – bu iqtidorli, bilimga chanqoq, biroq oilaviy jihatdan sharoiti og'ir bo'lgan yoshlarni xorijda o'qitish masalasining qo'yilganligidir. Buning uchun "Yorqin kelajak" loyihasi joriy etilib, har bir mahalladan shunday yoshlar saralab olinadi, iqtidori bo'yicha xorijiy oliygohlarda o'qish uchun tayyorgarlik kurslarida o'qitiladi. Yana bir tashabbus – xususiy o'quv markazlarida til o'rganayotgan yoshlarga xarajatlarning "2+6" shaklida qoplab berilishi e'tiborga molik.

Bu kabi masalalar ta'limning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rini, bilim yoshlar, haqiqatan ham, kelajak tayanchi, uning rivoji uchun xizmat qiladigan oltin fond ekanligini isbotidir.

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yoshlarning IT sohasidagi bilimni rivojlantirish bo'yicha ham ularning g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqildi, bu soha

eksportini 1 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. "Bir million dasturchi", IT olimpiadalariga qizlar ham faol jalb qilinadi. Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda "Bir million sun'iy intellekt foydalanuvchilari" loyihasi amalga oshiriladi. Bu ishlar yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini oldinroq aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda, salohiyatini monetizatsiya qilishda qo'l keladi. Bundan tashqari, maktablarda muhandislik laboratoriyalari tashkil etiladi, eng yaxshi startaplar loyihalashtiriladi.

Har qanday jamiyatning rivojlanishida yoshlar muhim qadam bo'lib xizmat qilar ekan, ularni turli mafkuraviy xavf-xatardan asrash masalasi ham doimiy e'tibordagi bo'lmog'i lozim. Shuning uchun yoshlarda internetdan foydalanish madaniyatini kuchaytirish, ularning dunyoqarashini salbiy ta'sirlardan asrash hozirgi kunda muhim hisoblanadi. Bunday ishlar yuz berishining oldini olish bo'yicha har bir rahbar, katta yoshdagi insonlar mas'ul. Bunda nuroniylarga tayangan holda "Ajodlar merosiga munosib avlod" g'oyasi ostida yoshlarni birlashtirish, ularni turli buzg'unchi g'oyalardan asrash chora-tadbirlari ko'riladi. Bu borada Prezidentimiz yoshlarga qarata: "yuksak ishonchga munosib bo'lib, jonajon Vatanimizni har tomonlama rivojlangan, go'zal va farovon mamlakatga, Uchinchi Renessans diyoriga aylantirishda oldingi saflarda bo'lasiz", deya ishonch bildirdi.

Shunday ekan, bu kabi ishlar samarasini ko'rish uchun hozirdanoq yoshlarga ko'mak berishimiz, qaysidir o'rinda himoyachi, qaysidir o'rinda esa dalda berib, ularning porloq istiqbol uchun hissa qo'shmog'imiz dardor.

**Bahodir MA'MUROV,**  
Buxoro davlat pedagogika instituti rektori,  
pedagogika fanlari doktori,  
professor.



### xabarleri

## Beshinchi kunda natijalar "besh"

Malayziyaning Nilay shahrida velosportning trek yo'nalishi bo'yicha kattalar, yoshlar va parasportchilar o'rtasidagi Osiyo chempionati bo'lib o'tmoqda.



Musobaqaning beshinchi kungi bahslari terma jamoamiz uchun muvaffaqiyatli boshlandi. Ayollar o'rtasida tashkil etilgan medison dasturida O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari Nafosat Koziyeva hamda Asal Rizayeva yana kuchlilar qatorida bo'ldi va hisobimizga navbatdagi medalni qo'shib qo'ydi.

Ayni damda O'zbekiston milliy terma jamoasi hisobida 2 ta oltin va 3 ta bronza medallari mavjud.

## Mahallada zamonaviy sport inshooti

Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanidagi "Gul" MFY hududida zamonaviy sport zali hamda ikki qavatli ma'muriy bino qurilib foydalanishga topshirildi. Mahalla ko'rkiga ko'rk qo'shgan ushbu inshootlar O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi mablag'lari hisobidan bunyod etildi.



Yangi tipdagi zalning o'lchami 9x18 metr bo'lib, unda qator sport turlari bilan shug'ullanish va musobaqalar o'tkazish mumkin.

Inshooting ochilish marosimida tuman hokimligi va viloyat sport boshqarmasi rahbariyati hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

## O'smirlar jamoasi jahon chempionatida qatnashadi

Shu yilning 28-fevralidan 6-mart sanasigacha Tailandning Bangkok shahrida sporting xokkey turi bo'yicha jahon chempionati bo'lib o'tadi.



Kuni kecha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari (U-18) o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tadigan jahon chempionatida ishtirok etish uchun Bangkok shahriga jo'nab ketdi. Birinchi kunda 27-28-fevral kunlari qishki Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida o'quv-mashg'ulot yig'ini ham bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Zebo JUMAYEVA tayyorladi.

## YOSH TADBIRKORLAR UCHUN KENG IMKONIYATLAR

Yurtimizda yoshlarni, xususan, ularning tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Fakt va raqamlar



**Islohotlarning mantiqiy davomi sifatida endilikda:**

- tadbirkor yoshlarga 2,5 mlrd. so'mgacha imtiyozli kreditlar beriladi, startap loyihalariga 2 mlrd. so'mgacha investitsiya kiritiladi;
- oliy o'quv yurti bitiruvchilari bandligini ta'minlash, ularning tashabbus va g'oyalari loyihaga aylantirish bo'yicha bank xizmatlari joriy etiladi;
- tomorqa va dalasidan samarali foydalanib, kamida 100 mln. so'm daromad olgan yoshlarga soddalashtirilgan tartibda yer ajratiladi. IT sohasida "Bir million dasturchi" loyihasiga qo'shimcha 300 ming yoshlar jalb etiladi.

REKLAMA

## TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

### Terapiya fakulteti:

1. Ftiziatriya kafedrasida: kafedra mudiri.
2. Endokrinologiya kafedrasida: stajyor-o'qituvchi.
3. Gematologiya, bolalar onkologiyasi, klinik immunologiya va transfuziologiya kafedrasida: katta o'qituvchi.

### Pediatriya fakulteti:

1. Bolalik davri asab kasalliklari kafedrasida: dotsent.
2. Pediatriya kafedrasida: assistent.
3. 2-Akusherlik va ginekologiya kafedrasida: dotsent.

### 4. Neonatologiya kafedrasida: assistent.

### Xirurgiya fakulteti:

1. Oftalmologiya kafedrasida: dotsent.
2. Xirurgik stomatologiya kafedrasida: assistent, stajyor-o'qituvchi.
3. 1-Xirurgiya kafedrasida: assistent.
4. Tibbiy radiologiya kafedrasida: assistent.
5. Onkologiya kafedrasida: dotsent.
6. 1-Ultratovush diagnostikasi kafedrasida: dotsent, assistent.
7. 2-Ultratovush diagnostikasi kafedrasida: assistent.

### 8. Shoshilinch tibbiy yordam kafedrasida: stajyor-o'qituvchi.

9. Urologiya va andrologiya kafedrasida: assistent.
10. Xirurgiya va bolalar xirurgiyasi kafedrasida: assistent.

### Tibbiy profilaktika fakulteti:

1. Neyroreabilitatsiya kafedrasida: dotsent.
2. Xalq tabobati kursi: professor.
3. Epidemiologiya kafedrasida: kafedra mudiri, professor.
4. Klinik laborator diagnostika kafedrasida: assistent.

### Menejment, ijtimoiy va birlamchi sog'liqni saqlash fakulteti:

1. Preventiv tibbiyot va valeologiya asoslari kafedrasida: assistent.
2. Tibbiyot texnikasi va innovatsion texnologiyalar bo'yicha injener texnik xodimlar kafedrasida: assistent.
3. Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish kafedrasida: professor.
4. Klinik farmakologiya kursi: assistent.

**Manzil:** Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy. Tel.: 71-267-60-74.

"Toshkent" xalqaro aeroporti 2024-yilda 9 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatdi.

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 242, 15 379 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mulligga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begunratov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxsona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbachi muharrir A. Soyibnazarov.  
Musahhib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxsonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.40 Topshirildi — 01.25 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi  
Narodnoe slovo

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi